

# Lyutetsiy-177 PSMA-617 dori vositasi to'g'risida qo'shimcha ma'lumot

Bugun <https://uza.uz/> saytida "O'zbek olimlari saratonni 99 foizgacha davolash imkonini beruvchi yangi preparat ishlab chiqdi" sarlavhasi bilan intervyu materiallari chop etilgan. Unda Yadro fizikasi institutida ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan lyutetsiy-177 PSMA-617 radiofarmatsevtik dori vositasi to'g'risida ma'lumot berilgan. Shuni aytib o'tish kerakki maqolada bu dori lyutetsiy-177 radioizotopi va PSMA-617 Prostata spetsifik menbranali antigendan tashkil topgani yozilgan. Ya'ni bu dori vositasi asosan katta yoshdagi erkaklardagi prostata bezi rakini davolashda samarali hisoblanadi. Shu bilan birga to'rtinchi va beshinchi dozalarida tananing boshqa qismlaridagi metastazalarga ham terapevtik ta'sir ko'rsatishi kuzatilgan.

Lekin keyinchalik bu maqola bir qator boshqa saytlar tomonidan o'ta qisqartirilgan holda qayta chop etilib, bunda PSMA to'g'risidagi ma'lumot tushirib qoldirilgan. Bu bilan aholi o'rtasida bu dori vositasi barcha rak kasalliklarini davolaydi degan tushuncha paydo bo'lgan. Eng asosiysi boshlang'ich maqolada dori vositasining 1 ta dozasi 1,5 ming (\$1500) AQSH dollari deb yozilgan bo'lsa, ba'zi saytlarda (masalan, <https://upl.uz/>) uning narxi 1,5 dollar deb 1000-marta kamaytirib, noto'g'ri ko'rsatilgan.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, bu dori vositasi radioaktiv modda bo'lib u dorixonalarda sotilmaydi. Bu faqat shifoxona va klinikalarga yetkazib berilib, bu klinikalarda bemorlar tekshiruvdan o'tkazilib, PET (pozitron-emission tomografiya) yordamida tashxis qo'yiladi va bemordagi kasallikni lyutetsiy-177, PSMA-617 yordamida davolash mumkinligi aniqlansa klinika bizning korxonaga shu dorining kerakli dozasiiga buyurtma beradi. Davolash faqatgina kasalxona sharoitida, maxsus gamma kameralar bilan kuzatuv ostida olib boriladi. Bemorlar bu dori vositasini o'zlaricha dorixonadan sotib olib o'zlari davolana olmaydi.

P/S: Ommaviy axborot vositalari vakillaridan biror yangilikni, axborotni tarqatishda qaysi manbadan olinganligi, berilayotgan faktlar to'g'riligiga alohida e'tibor berishingizni so'raymiz!

